

**LEXEMAS FORMED WITH SYNONYMOUS PERSIAN AFFIXOIDS FOUND IN ALISHER NAVOYI'S "KHAMSA"**

Aziza Ilgisovna Nishanbayeva

Senior lecturer

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Khamsa”, Alisher Navoi, verbal affixoid, nominal affixoid, concordance, lexeme, synonym, frequency.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: A number of studies have been conducted on the two types of affixoids in modern Persian: nominal and verbal affixoids. On the issue of affixoids, Uzbek and Russian scholars of Iranian studies, as well as Iranian linguists, have different opinions.

As a result of our research, we discovered in the works of the classical Persian period many words formed using verbal and nominal affixoids. It must be said that Alisher Navoi, who wrote in classical Persian, used words with Persian affixoids in his works in the Turkic language. One of these works is “Khamsa”.

The article analyzes lexemes formed with Persian nominal and verbal affixoids, which are synonyms. As a result of the research, when such verbal affixoids as *-fišān (-afšān)*, *-rēz*, *-pāš* form words give the meaning “scattering”, “shedding” and are considered synonyms. It has also been observed that nominal suffixoids such as *-gun*, *-fām*, *-raṅ* mean “color”, “similarity” and become synonyms when build a word. This study also presented the frequency of occurrence of lexemes in Khamsa formed using the above-mentioned affixoids.

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDA UCHRAYDIGAN SINONIM FORSIY AFFIKSOIDLAR BILAN YASALGAN LEKSEMALAR

Aziza Ilgisovna Nishanbayeva

katta o‘qituvchi

TDSHU

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: “Xamsa”, Alisher Navoi, feʻliy affiksoid, ismiy affiksoid, konkordans, leksema, sinonim, chastota.

Annotatsiya: Hozirgi zamon fors tilida affiksoidlarning ikki turi, yaʼni ismiy va feʻliy affiksoidlar boʻyicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Affiksoidlar masalasida oʻzbek va rus eronshunos olimlari hamda eron tilshunoslarining qarashlari farqlanadi.

Tadqiqotimiz natijasida klassik fors tili davridagi asarlarda feʻliy va ismiy affiksoidlar orqali yasalgan koʻplab soʻzlarni uchratdik. Aytish joizki, klassik fors tilida ijod qilgan Alisher Navoiy ham oʻzining turkiy tildagi asarlarida forsiy affiksoidlar qatnashgan soʻzlarni yuqori mahorat bilan qoʻllagan. Shunday asarlaridan biri “Xamsa”dir.

Maqolada sinonim boʻlgan forsiy ismiy hamda feʻliy affiksoidlar orqali yasalgan leksemalar tahlilga tortiladi. Tadqiqot natijasida *-fišān* (*-afšān*), *-rēz*, *-pāš* kabi feʻliy affiksoidlar soʻz yasaganda “toʻkuvchi”, “sochuvchi” maʼnolarini berib, bir-biriga sinonim hisoblanadi. Shuningdek, *-gun*, *-fām*, *-raŋ* kabi ort qoʻshimcha shaklidagi ismiy affiksoidlar soʻz hosil qilganda “rang”, “tus”, “oʻxshashlik” maʼnolarini anglatishi hamda sinonim boʻlib kelishi kuzatildi. Mazkur tadqiqotda zikr qilingan affiksoidlar orqali yasalgan leksemalarning “Xamsa”da uchrash chastotasi ham keltirildi.

ЛЕКСЕМЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ С СИНОНИМНЫМИ ПЕРСИДСКИМИ АФФИКСОИДАМИ, НАХОДЯЩИМСЯ В «ХАМСЕ» АЛИШЕРА НАВОИ

Азиза Ильгисовна Нишанбаева

старший преподаватель

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Хамса», Алишер Навои, глагольный аффиксoid, именной аффиксoid, конкорданс, лексема, синоним, частота.

Аннотация: Ряд исследований был проведен по двум типам аффиксoidов в современном персидском языке: именным и глагольным аффиксoidам. В вопросе по аффиксoidам узбекские и российские иранисты, а также иранские лингвисты расходятся во мнениях.

В результате нашего исследования мы обнаружили в произведениях классического персидского периода множество слов, образованных с помощью глагольных и именных аффиксoidов. Стоит отметить, что Алишер Навои,

писавший на классическом персидском языке, в своих произведениях на тюркском языке использовал слова с персидскими аффиксоидами. Одно из таких произведений – «Хамса».

В статье анализируются лексемы, образованные посредством персидских именных и глагольных аффиксоидов, которые являются синонимами. В результате исследования такие глагольные аффиксоиды, как *-fišān* (*-afšān*), *-rēz*, *-pāš* при образовании слов придают значения «рассыпающийся», «проливающий» и считаются синонимами. Было также замечено, что именные аффиксоиды суффиксального типа, такие как *-gun*, *-fām*, *-raḡ* означают «цвет», «сходство» и становятся синонимами при образовании слова. В данном исследовании также была представлена частота встречаемости лексем в «Хамсе», образованных с помощью вышеупомянутых аффиксоидов.

KIRISH

Barchaga ma'lumki, adabiyot gullab yashnagan davr o'rta asrlarga to'g'ri keladi va fors tili hamda turkiy tilda ijod qilish mazkur davrda keng rivojlandi. Mazkur davrda Rudakiy, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy kabi buyuk shoirlar bilan bir qatorda Alisher Navoiyning mohirligini o'zida aks ettiruvchi asarlar vujudga keldi. Navoiy ijodini o'rganganda, uning turkiy asarlarida yuksak mahorat va ilm bilan qo'llanilgan arabiy hamda forsiy so'zlarni kuzatish mumkin. Shunday ijod durdonalaridan biri shoh asar "Xamsa"dir.

"Xamsa" dostonlarida forsiy fe'liy va ismiy affiksoidlar orqali yasalgan ko'plab so'zlarni ko'rish mumkin. Alisher Navoiy ushbu dostonlarda *-riz*, *-angiz*, *-āviz*, *-pazir*, *-dār*, *-suz*, *-kaš*, *-pāš*, *-pasand*, *-afšān* kabi bir qator fe'liy hamda *pur-*, *xuš-*, *-fām*, *-xāna*, *-gāh*, *-raḡ* kabi bir qator old va ort qo'shimcha shaklidagi ismiy affiksoidlar orqali yasalgan so'zlardan foydalanadi yoki model asosida o'zi yangi so'zlar yasaydi. Bu narsa bir tomondan Navoiy davrida madaniyatimiz mushtarakligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan affiksoidlar bilan so'z yasash o'ta mahsuldor va keng imkoniyatlarga egaligini hamda Navoiy bundan xabardor ekanligini ko'rsatadi.

Affiksoidlar affiks bo'lmay, so'zlarda ularning vazifalarini bajaradigan vosita hisoblanadi. Turli xil nazariy adabiyotlarda ularga nisbatan turli terminlar ishlatilgan: "словоморфема (so'z-morfema)" [16, b.96], "полуаффикс (yarimaffiks)" [5, b.8; 6, b.21-22; 18, b.162; 19, b.5; 20, b.27; 7, b.14-21; 15, b.157-160], "полусуффикс (yarimsuffiks)" [8, b.6-7], "трансформированная корневая морфема (transformatsiyaga uchragan o'zak morfema)" [21, b.9], "affiksoid" [28,

b.20], “prefiksoid” [17, b.18-20], “kompozitoid” [9, b.10], “šebh-e vandhā (affikslarga o‘xshash)” [26, b.145-146]. Tadqiqot ishimizda “affiksoid” terminidan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot ishida Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida qo‘llanilgan forsiy sinonim affiksoidlar bilan yasalgan leksemalar ko‘rib chiqiladi va struktur hamda semantik jihatidan tahlilga tortiladi. Misollar “Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni konkordansi” [22], “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni konkordansi” [23], “Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni konkordansi” [24], “Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni konkordansi” [25], “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni konkordansi” [26] asosida to‘plandi. Ularning dostonlarda qo‘llanilishi esa “Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari sanama (chastotali) so‘zligi” [27] dan keltirildi. Bunda birinchi son dostonning fasli va ikkinchi son esa bayt raqamini bildiradi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot natijasida *aškfīšan*, *aškpāš*, *aškrēz*, *guharaḥšān* (*guhārḥīšān*), *guharpāš*, *guharrēz*, *ganjḥīšān*, *ganjpāš*, *ganjrēz*, *muškfīšān*, *muškpāš*, *muškrēz*, *gulgūn*, *gulḥām*, *gulraḥ*, *la’lfām*, *la’lgūn*, *la’lraḥ*, *yāqūḥfām*, *yāqūḥgūn*, *yāqūḥtraḥ*, *āyīnaḥfām*, *āyīnagūn*, *āyīnaraḥ* kabi so‘zlar forsiy affiksoidlar orqali yasalgan so‘zlar deb topildi. Har bir leksemani sinonim forsiy affiksoidlar bilan ko‘rib chiqamiz.

Quyida so‘z tarkibida sinonim bo‘lgan -fišān (-afšān), -rēz, -pāš kabi fe‘liy affiksoidlar bilan yasalgan so‘zlarni ko‘rib chiqamiz.

Turkiy tilga o‘zlashgan ريز -rēz affiksoidi رىختن rixtan fe‘lining hozirgi zamon negizi bo‘lib, fors tilida [34, b.1702] quyidagi ma‘nolarni anglatadi: “ag‘darmoq”, “sochmoq”, “yoymoq”, “tashlamoq”, “ag‘darilmoq”, “sochilmoq”. -پاش -pāš affiksoidi esa پاشيدن pāšidan fe‘lining hozirgi zamon negizi fors tilida [33, b.665] “sochmoq”, “sepmoq”, “to‘kmoq” ma‘nolarini anglatadi. فشان (-افشان) -fišān (-afšān) affiksoidi افشانندن afšāndan fe‘lining hozirgi zamon negizi bo‘lib, “to‘kmoq”, “sochmoq”, “taratmoq” [33, b.317] ma‘nolarini beradi.

Mazkur affiksoidlar bir xil otlarga qo‘shilib, “to‘kuvchi”, “sochuvchi” ma‘nosini ifodalab kelishini misollar orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ĵām bu aḥvāliḥa qan yig‘labān,

Šam’ kuyub, **aškfīšan** yig‘labān. (Hayrat ul-abror, 26/75)

Kimni pušaymanliq etib **aškpāš**,

Gavhari maqšūd aḥa har qaṭra yāš. (Hayrat ul-abror, 50/85)

Agar haḥrdin kormāsa rustaxēz,

Qačān kuygāy erdi bolub **aškrēz**. (Saddi Iskandariy, 65/14)

“Xamsa” dostonlaridan keltirilgan ushbu baytlarda “ašk” – “ko‘z yoshi” so‘ziga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qo‘shilib, “ko‘z yoshi to‘kuvchi” ma‘nosida ishlatilgan. Bulardan aškpāš fors tilidagi manbalarda kuzatilmadi. “Xamsa” dostonlarida aškfīšan – 1, aškpāš – 1, aškrēz – 4 marta uchradi.

Shunday holatni “guhar” – “gavhar” so‘ziga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qo‘shilib, “gavhar to‘kuvchi” ma‘nosida qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Masalan, guharafšān (Hayrat ul-abror, 16/56), guharpāš (Farhod va Shirin, 12/43), guharrēz (Layli va Majnun, 5/23). Shu tartibda “Xamsa” dostonlarida guharafšān (guharfīšan) – 2, guharpāš – 5, guharrēz – 6 marta uchradi.

Boshqa bir misolni “ganj” – “xazina, boylik” ma‘nodagi so‘zga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qo‘shilib, “xazina sochuvchi” ma‘nosida qo‘llanilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, ganjfišan (Hayrat ul-abror, 12/25), ganjpāš (Farhod va Shirin, 6/9), ganjrēz (Saddi Iskandariy, 89/64). Shunday qilib, “Xamsa” dostonlarida ganjfišan – 2, ganjpāš – 3, ganjrēz – 4 marta uchradi. Bulardan ganjfišan va ganjpāš fors tilidagi manbalarda kuzatilmadi.

Mazkur holatni “mušk” – “mushk” so‘zi bilan ham kuzatish mumkin va unga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qo‘shilib, “mushk sochuvchi” ma‘nosidagi so‘z qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, muškfišan (Hayrat ul-abror, 19/4), muškpāš (Hayrat ul-abror, 46/96), muškrēz (Saddi Iskandariy, 80/38). Dostonlarda muškfišan – 2, muškpāš – 2, muškrēz – 4 marta uchradi. Bulardan muškpāš fors tilidagi manbalarda kuzatilmadi.

Zikr qilingan so‘zlar fe‘liy affiksoidlar bilan yasalgan bo‘lib, keltirilgan fe‘llar hozirgi zamon negizi sinonim tarzda qo‘llanilganini va so‘z yasashda bir xil ma‘nodagi so‘zlarni keltirib chiqarganini kuzatdik.

Bundan tashqari, ismiy turdagi affiksoidlar ham leksemalarda sinonim bo‘lib kelganini uchratdik. Quyida ulardan ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz.

Fors tilidan o‘zlashgan گون -gun ning mustaqil ma‘nolari [30, b.17135]: 1) “rang”, “tus”; 2) “tur”; 3) “yanoq”; 4) “sifat”; 5) “qonun”, “usul” bo‘lib, affiksoid sifatida “rang”, “tur”, “o‘xshashlik” ma‘nolarini beradi. فام -fām affiksoidining mustaqil ma‘nolari quyidagilardan iborat [29, b.14951]: 1) “qarz”; 2) “majburiyat”, 3) “rang”. رانگ -rañ affiksoidining fors tilidagi ma‘nolari [31, b.12259]: 1) “rang”; 2) “tur”; 3) “rang beruvchi”; 4) “surma”; 5) “qon”; 6) “rivoj”; 7) “hiyla”; 8) “xiyonat”; 9) “o‘shish”; 10) “ayb”; 11) “foйда”; 12) “mol-mulk”; 13) “qiyinchilik” kabi.

Mazkur affiksoidlar bir xil ismiy so‘z turkumlariga oid so‘zlarga qo‘shilib, odatda “rang”, “tus” yoki “o‘xshashlik” ma‘nolarini ifodalaydi. Quyidagi baytlarda -gun, -fām, -rañ affiksoidlari bilan yasalgan so‘zlarni ko‘rib chiqamiz.

Dīn yolidā qānga boyalgān badan,

Qāndur aṇa ḥullayi **gulgūn** kafan. (Hayrat ul-abror, 52/93)

Qoyub taxt āllidā kursī **gulfām**,

Bolub ustidā Mulkārāga ārām. (Farhod va Shirin, 17/28)

Taxti **gulraṇ** uzā tutub ārām,

Ĵāmi la'l iḥrā bādāyi gulfām. (Layli va Majnun, 26/6)

“Xamsa” dostonlaridan keltirilgan ushbu baytlarda “gul” – “atrgul” soʻziga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qoʻshilib, “qizilrang” maʼnosida ishlatilgan. “Xamsa” dostonlarida gulgūn – 48, gulfām – 15, gulraṇ – 18 marta uchradi.

Shunday holatni “la'l” – “la'l” soʻziga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qoʻshilib, “la'l (qizil) rangli” maʼnosida qoʻllanganini koʻrish mumkin. Masalan, la'lfām (Saddi Iskandariy, 35/243), la'lgūn (Farhod va Shirin, 17/39), la'lraṇ (Sabbai sayyor, 26/0). Shu tartibda “Xamsa” dostonlarida la'lfām – 2, la'lgūn – 6, la'lraṇ – 2 marta uchradi.

Boshqa bir misolni “yāqūt” – “yoqut” maʼnodagi soʻzga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qoʻshilib, “yoqut (qizil) rangli” maʼnosida qoʻllanilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, yāqūtfām (Sabbai sayyor, 26/0), yāqūtgūn (Saddi Iskandariy, 35/259), yāqūtraṇ (Hayrat ul-abror, 45/19). Shunday qilib, “Xamsa” dostonlarida yāqūtfām – 1, yāqūtgūn – 1, yāqūtraṇ – 1 marta uchradi.

Mazkur holatni “āyīna” – “oyna (koʻzgu)” soʻzi bilan ham kuzatish mumkin va unga yuqorida keltirilgan affiksoidlar sinonim sifatida qoʻshilib, “oynarang (shaffof)” maʼnosidagi soʻz qoʻllanilganining guvohi boʻlamiz. Masalan, āyīnafām (Hayrat ul-abror, 3/25), āyīnagūn (Saddi Iskandariy, 9/77), āyīnaraṇ (Hayrat ul-abror, 18/38). Dostonlarda āyīnafām – 1, āyīnagūn – 1, āyīnaraṇ – 5 marta uchradi.

Keltirilgan soʻzlar ort qoʻshimcha shaklidagi ismiy affiksoidlar bilan yasalgan boʻlib, bir xil maʼnodagi soʻzlarni yasaganini kuzatdik.

Mazkur maqolada sinonim feʼliy va ismiy affiksoidlar bilan yasalgan baʼzi misollar keltirildi va tahlil qilindi. Bunday holatlarni koʻplab kuzatish mumkin. Ularni keying tadqiqotlarda yoritishni maqsad qildik.

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, nazmda yuksak mahorat qoʻllagan Alisher Navoiy oʻz asarlarida, xususan, “Xamsa” dostonlarida affiksoidlar sinonimlarini mohirona qoʻllab, fors tilida ehtimol mavjud boʻlmagan soʻzlarni yasab, vaznga tushadigan va qofiyadosh soʻzlarni qoʻlga kiritgan.

Ushbu tadqiqot ishida -fiṣān (-afṣān), -rēz, -pāš kabi fe'liy affiksoïdlar hamda -gun, -fām, -raḡ kabi ort qo'shimcha shaklidagi ismiy affiksoïdlar orqali yasalgan leksemalar tahlilga tortildi. Mazkur affiksoïdlar sinonim tarzda qo'llanilganini ko'rsatish maqsadida bir xil asosga qo'shilgan so'zlar tanlandi va ularning "Xamsa" dostonlarida uchrash chastotasi keltirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djafarov B. et al. Grammatical Adaptation Of The Turkic Loanwords In Persian (In The Examples Of Adjective Phrases) //Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования. – 2021. – С. 102-106.
2. Mirzakhmedova K. et al. The terms formatted with arabic loanwords in the persian language //Инновационные подходы в современной науке. – 2021. – С. 201-206.
3. Nishanbaeva A. Analysis of derived words according to the model "arabic stem + affixoid سـاز -sāz" in "Hayrat al-abror" //“ISJ Theoretical and applied science” халқаро илмий журнал, issue 5, volume 97, 2021. –Б. 406-410.
4. Nuriddinov N. et al. Copulative compounds made by interfix الف وصل //Инновационные подходы в современной науке. – 2021. – С. 65-69.
5. Алиев С.А. Полуаффиксация в системе словообразования современного персидского языка. АКД. – М.,1985.
6. Антропова Н.А. Словообразование немецкой разговорной лексики. АДД. – М., 2006.
7. Гладкова Е. Глагольная полуаффиксация как продуктивная словообразовательная модель в общественно-политической лексике современного персидского языка //Филология и культура, №3, 2018, – С.14-21.
8. Дьячкова Е.С. Полусуффиксы и образования с ними в современном английском языке. АКД. – Барнаул, 2007.
9. Месамед В.И. Калькирование как один из способов пополнения словарного состава современного персидского языка. АКД. – М.,1984.
10. Нишанбаева А. “Хайрат ул-аброр”да “арабий ўзак +-ساز -sāz аффиксоиди” моделида ясалган сўзлар таҳлили //Шарқшунослик. -Т., 2020, №2. –Б.100-108.
11. Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Хамса”сида “дил” ўзак морфемаси асосида аффиксоидлар билан ясалган сўзлар //“XXI asr: fan va ta'lim masalalari” илмий электрон журнали, 2021, №2. –Б.1-9.
12. Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Хайрат ул-аброр” дostonидаги ўзлашма форсий феълий яримаффикслар асосида сўз ясашиши // Шарқ машъали. –Т., 2018. №1. –Б. 48-51.

13. Нишанбаева А. И. Вариантность глагольных аффиксоидов в поэмах «Хамсы» Алишера Навои (на примере -fišān (-afšān), -rēz, -rāš «рассыпающийся», «проливающий», «распыляющийся») //Актуальные вопросы филологии. – 2020. – с. 34-37.

14. Нишанбаева А. И. и др. Образование слов с помощью персидских глагольных аффиксоидов в поэме «Хайрат аль-абрар» Алишера Навои // “XX International Multidisciplinary Conference Recent Scientific Investigation” халқаро илмий-амалий анжумани тўплами, – М., Изд. «Интернаука», 2021, № 5(20). –Б. 149-154.

15. Нишанбаева А. И. Продуктивные именные полуаффиксы префиксального типа в современном персидском языке //Вестник Челябинского государственного университета, № 33 (287), 2012, – С.157-160.

16. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М., Из-во Московского университета, 1973.

17. Плещинская А.И. Развитие префиксоидного словообразования в русском языке. На материалах слов с элементами аудио-, видео-, кино-, радио-, теле-, фото-. КД. – Казань, 2005.

18. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М., 2001.

19. Рязанов В.Ю. Особенности синхронных связей словосложения и аффиксации в современном английском языке (полуаффиксация как один из путей их взаимодействия). КД. – М., 2000.

20. Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке. АКД. – М., 2008.

21. Тилембулова С.Н. Трансформированные корневые морфемы. На материалах русских префиксоидов и их аналогов в английском и казахском языках. КД. – Саратов, 2000. С.9.

22. Қуронбеков А., Имомназаров М., Маннонов А. ва б. Алишер Навоийнинг “Ҳайрат ул-аброр” достони конкорданси. –Т.: “Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси”, 2012.

23. Қуронбеков А., Маннонов А., Имомназаров М., Аҳмедова Д., Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони конкорданси. –Т.: “Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси”, 2013.

24. Қуронбеков А., Маннонов А., Имомназаров М., Аҳмедова Д., Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони конкорданси. –Т.: “Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси”, 2014.

25. Қуронбеков А., Маннонов А., Имомназаров М., Аҳмедова Д., Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достони конкорданси. –Т.: “Фан ва технологиялар марказининг босмаҳонаси”, 2015.

26. Қуронбеков А., Маннонов А., Имомназаров М., Аҳмедова Д., Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони конкорданси. –Т.: “Фан ва технологиялар марказининг босмаҳонаси”, 2016.

27. Қуронбеков А., Имомназаров М., Каландаров М., Нишанбаева А. Алишер Навоийнинг “Хамса” дostonлари санама (частотали) сўзлиги. –Т.: “Фан ва технологиялар марказининг босмаҳонаси”, 2018.

28. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: “Ўқитувчи”, 2002.

29. دهخدا علی اکبر. لغتنامه، 16 جلدی. تهران، 1994-1993. جلد 10.

30. دهخدا علی اکبر. لغتنامه، 16 جلدی. تهران، 1994-1993. جلد 12.

31. دهخدا علی اکبر. لغتنامه، 16 جلدی. تهران، 1994-1993. جلد 8.

32. کلباسی ایران. ساخت اشتقاقی واژه در زبان فارسی امروز. تهران، 1992.

33. معین محمد. فرهنگ فارسی. تهران، 1371. جلد 1.

34. معین محمد. فرهنگ فارسی. تهران، 1371. جلد 3.